



UDK:182.2.2.

Yulduz RAXIMOVA,
Samarqand shahar "Cambridge unit school" maktabi o'qituvchisi
E-mail:yraximova711@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d O.G'aybullayev taqrizi asosida

VOHID TURK - NAVOIY IJODI TADQIQOTCHISI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Navoiy asarlarini Turkiyada tarjima qilinishi va nashr etilishiga ulkan hissa qo'shgan navoiyshunos olim Vahid Turkning fikrlari yuzasidan munosabat bildiriladi. Darhaqiqat, Turkiyada Navoiy hayoti va ijodini o'rganish yo'lida alohida o'ringa ega bo'lgan bu olim Navoiy falsafiy-axloqiy hamda badiiy jihatdan mukammal bo'lgan asari - "Mahbub ul qulub"ning turkchaga tarjima qilgan hamda uning nashr etilishida bosh-qosh bo'lgan. Olim "Mahbub ul qulub" asarini "siyosatnoma-nasihatnoma ko'rinishidagi asar" deya ta'riflaydi. Ushbu fikrlar esa Vahid Turkning Istanbulda chop etilgan "Mahbub ul kulub" kitobining kirish qismida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Falsafiy-axloqiy, diniy, Vahid Turk, monografiya, Husayn Boyqaro, siyosatnoma, nasihatnoma, "Mahbub ul qulub".

ВОХИД ТУРК – ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ТВОРЧЕНИЯ НАВОИ

Аннотация

В данной статье выражено мнение Вахида Тюрка, ученого-навоийца, внесшего большой вклад в перевод и публикацию произведений Навои в Турции. Фактически этот учёный, занимающий особое место в изучении жизни и творчества Навои в Турции, перевёл на турецкий язык философско-этический и художественно совершененный труд Навои – «Махбуб ул Гулуб» и был лидером по его изданию. бровь. Ученый характеризует работу «Махбуб уль-Кулюб» как «работу в форме политического совета». Эти мысли выражены во введении к изданной в Стамбуле книге Вахида Тюрка «Махбуб ул Кулюб».

Ключевые слова: Философско-этический, религиозный, Вахид Тюрк, монография, Хусейн Бойкара, программный документ, совет, «Махбуб уль-Кулюб».

VOHID TURK - RESEARCHER OF NAVOI'S CREATION

Annotation

In this article, the opinion of Vahid Turk, a Navoi scholar who made a great contribution to the translation and publication of Navoi's works in Turkey, is expressed. In fact, this scientist, who has a special place in the study of Navoi's life and work in Turkey, translated Navoi's philosophical-ethical and artistically perfect work - "Mahbub ul Qulub" into Turkish and was the leader in its publication. - there was an eyebrow. The scientist describes the work "Mahbub ul Qulub" as "a work in the form of a policy-advice". These thoughts are expressed in the introduction of Vahid Turk's book "Mahbub ul Kulub" published in Istanbul.

Key words: Philosophical-ethical, religious, Vahid Turk, monograph, Husayn Boykara, policy document, advice, "Mahbub ul Kulub".

Kirish. Sharq mumtoz adabiyoti an'anaga asoslangan, g'oyaviybadiiy an'ana zaminida o'zgarib, yuksalib borgan adabiyotdir. An'anaviy g'oya, mavzu, obraz va tasvir vositalariga tayanib faoliyat ko'rsatgan bu adabiyot dunyo badiiy tafakkurida beqiyos mavqe egallagan. Ammo bunga osonlikcha, yengil-yelpi ijodiy mehnat bilan erishilmagan, albatta. Chunki an'ana degani hammasi oson, bari ilhombaxsh va ibratli degani emas. Har qanday an'ana singari adabiy an'anada ham ijobji, eskirmas tomonlar bilan birga vaqt o'tishi bilan qiymatini boy bergen, qaytariq yoki bir xilligi bilan o'quvchini bezdiradigan u yoki bu jihatlar bo'lgan va bo'ladi ham. Har bir ulkan san'atkor eskirgandan kechish yoki uni yangilash bilan birga, yo'qni bor etish, ya'ni ixtirochilik salohiyatini ham namoyon qiladi. Shu ma'noda ulug' shoira va mutafakkir Alisher Navoiyning ijod tajribasi tarixda niyoyat darajada siyrak yuzaga chiqadigan hodisadir.

Turkiy xalqlar adabiyoti va madaniy hayotiga ulkan hissa qo'shgan Navoiy ijodi hanuzgacha barhayot. Ushbu davrgacha Navoiy asarlari ko'plab turkiy xalqlarning yuragidan munosib o'rinn olishga ulgurgan. Shu jumladan, qardosh turk xalqi orasida ham Alisher Navoiy ijodiga va uning lirik

merosiga qiziqish juda katta. Buni Navoiy asarlarining turk tiliga tarjima qilinishida hamda ushbu meros yuzasidan ilmiy va badiiy tadqiqotlar olib borilayotganida ko'rishimiz mumkin. "Shubhasiz, Navoiy haqida yozilgan asarlar bulardangina iborat emas.

Adabiyotlar tahlili. Fuod Ko'prulu, Ogoh Sirri Levant, Sa'diddin Nus'hat Ergun, Alaiddin Guvsu, Mustafo Eson, Yusuf Chetindag' kabi tadqiqotchilarining ham Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq bir talay ishlari mavjud.

F.Ko'pruluning "Turk tili va adabiyoti haqida tadqiqotlar" nomli kitobida ham "Alisher Navoiy va ta'sirlari" mavzusidagi bir bo'lim bor. Ko'rinish turbdiki, turk madaniyati va adabiyoti uchun bunday muhim shaxs haqida Turkiyada bugunga qadar bir-biridan farqli juda ko'p ishlar qilingan [1]. Alisher Navoiyning devonlari, dostonlari va falsafiy-badiiy asarlari Turkiyada turli tadqiqotchilar tomonidan tarjima qilinib, nashr ettirilgan.

Shuningdek, Alisher Navoiy haqida usmonli turk tilida ko'plab navoiyshunos olimlar tomonidan turli asar va maqolalarning chop ettirilishi usmonli turklarning Navoiy ijodiyoti, asarlari va shaxsiyatiga bo'lgan yuksak hurmat va

ehtiromidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy ijodiga nisbatan qiziqish Turkiyada hozir ham shunchalik kuchlik, turk millatiga mansub ilm ahli hatto turli vebshifa va forumlarda eski o'zbek adabiy tilining asoschilaridan birining hayoti va ijodiga doir turli ma'lumotlarni yozib, internet sahifalarini orqali o'zaro fikr almashishadi. Jumladan, Ridvan Janimming "Turk madaniyati va adabiyotida Alisher Navoiy tadqiqotlari", Jenos Ekmanning "Navoiyning ilk devonlari xususida", Yusuf Chetindag'ning "Usmonli adabiyoti va Navoiy", "Alisher Navoiy va usmonli podshohlar", "Alisher Navoiy va turk she'riyati tili" kabi maqolalar shular jumlasidandir [4].

Tahlil va natijalar. Navoiyning ijodini tahlil va tadqiq qilishda jonkuyarlik qilgan turk olimlaridan biri Vahid Turk. Shuningdek, olim Navoiy asarlarining keng ko'lamda turk tiliga tarjima qilinishida ham yetakchilik qilgan. Xususan, olimning "Mahbub ul qulub" asarining turk tiliga tarjima nashrida yozgan so'zboshisida shunday fikrlar bildirgan: "...Butun hayotini Turkiy millatlar rivoji uchun xizmat qilishga baxshida etgan Alisher Navoiy o'ttizga yaqin asar yozgan va barcha asarlarining boshlanish debochasida "turkiylar ham foydalansin deya yozdim" iborasini qo'llaydi. Bu jumlalar bilan turkiy xalqlar adabiyotida muhim o'rinnegallagan".

Olim hazrat Alisher Navoiyni shunday so'zlar bilan ta'riflab, madh etadi: "Navoiy: boy va asil bir oilaning farzandi bo'lgan Alisher Navoiy bobosining sharofati bilan temuriylardan bo'lgan Abulqosim Bobur mirzoning himoyasiga kiradi. Sultonning marhamatiga sazovor bo'lib, uning tarafidan "o'g'lim" deb iltifot ko'rsatadi. Ayni shu himoyani ko'rgan va o'zi kabi san'atga ishqiboz bo'lgan temuriy hukmdor Sulton Husayn Boyqaroning muhrdori, devonbegisi, sirdoshi bo'lish bilan bir qatorda xattot, rassom, misiqashunos va buyuk shoirdir.

Hirotda tavallud topgan Alisher Navoiy, 1499-yilda yozib tugatgan "Mukomat ul lug'atayn" asarida turkiy tilning forschadan ifoda qudrati va mukammalligi bo'yicha yanada yuqorida ekanligini bir qancha misollar bilan isbotlagan, bunga qaramay tilimiz haqidagi bu haqiqat yashirin bo'lib qolganidan layoqatsiz shoirlarimizning forschada ijod qilganidan afsuslanib, yuksak milliy ongga ega ekanini ham ko'rsatadi. Devon va xamsa asarlaridan tashqari tazkiralar, diniy va axloqiy asarlar, tarixiy va biografik asarlar yozish bilan bir qatorda, davlat idorasi boshqaruvida ham faol ishtirok etdi. Aksinchalik, ziyoragini tufayli soliq muammolari tufayli qo'zgolnomi bostirishda yetakchilik qiladi. Sulton Husayn Boyqaro bu xizmatlari uchun Navoiyni "Ruknus saltana"(saltanat tayanchi), "umdatul mamlakat"(mamlakat tayanchi), "xoqonning davlat yordamchisi", "Muqaqarrab ul hazrati sulton" (podshoh do'sti), "Nizomiddin Mir Alisher" kabi unvonlar bilan siyladi" [2].

Tadqiqotchi olim ushbu asarda ham Navoiyning hayotiga oid batafsil ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Zoton, Navoiyning tug'ilgan davridan boshlab to vafotiga qadar bo'lgan voqealarni kitobxonga batafsil yetkazib beradi. Barcha adabiyotshunoslar singari Vahid Turk ham Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi do'stlikni shunday izohlaydi: "Alisher yoshlik davrini Amir Temuring o'g'illaridan bo'lgan Umarshayx Mirzoning avlodlaridan bo'lgan Husayn Boyqaro bilan o'tkazdi, bitta ustozlardan dars oldi va do'st tutundilar. Bu ikki buyuk shaxs orasidagi yaqinlik zamonlar oshib mustahkam do'stlikka aylandi va bu do'stlik umrlari o'tib borgani sari davom etdi, zamona fitnlari avj olgan davrlarda ham bu do'stlik hech ham uzilmadi. Bu do'stlik turkiy madaniyati va sivilizatsiyasida unumli hissa qo'shdi, ular yashagan davrda madaniyat va adabiyot sohiblarining suhabatlaridan tashkil topgan "Boyqaro majlislari" nomi ostida shuhrat qozondi". Bu o'rinda olim Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy o'rtasidagi

dostlik nafaqt davlar rivojiga manfaatlil bo'lganini aytib o'tadi, shu bilan birga adabiyot va san'at ahli ham bu do'stlikdan foyda topganliklarini aytib o'tadi.

Adabiyotshunos olim Navoiyning "Mahbub ul qulub" asari haqida shunday fikr bildiradi: "Turkiyaning turkchasiiga tarjima qilganimiz "Mahbub ul qulub" Alisher Navoiy vafotidan oldin 1500/1501-yillarda yozilgan siyosatnomasinihsatnomasi ko'rinishidagi bir asardir. Asarning kirish qismidan so'ng 3 fasla bo'lingan va har bir fasl o'z ichiga tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan. Birinchi bo'lim xoqondan boshlab davlat xizmatchilari bilan maslak arboblarini mavzu qilib olingen va ijobji va salbiy misollar bilan inson qanday bo'lish yoki bo'lmasligi kerakligini anglatadi. Asarning siyosatnomasi bo'lgan bu bo'limda qirqta sarlavhali qirqta kasb vakillari tilga olingen. Ikkinchi bo'limda inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xilma-xil masalalar ta'kidlangan. So'nggi bo'lim esa 127 ta tanbehni o'z ichiga oladi. Bu tanbehlarda ham tegishli masalalarga qo'l urilgan va har bir tanbehning oxirida she'riy baytlar orqali yakun yasalgan".

Keyingi o'rnlarda esa olim tomonidan asarning adabiyot va ijtimoiy hayotimizdagagi ahamiyati haqida batafsil fikr yuritiladi: "Mahbub ul qulub" Navoiyning so'nggi asari bo'lishi bilan bir qatorda turkiy xalqlar sivilizatsiyasidagi eng manfaatlil asardir. O'rxun yozuvlari va "Qutadg'u bilig" asari kabi siyosatnomasi asarlar turiga kiradigan ushbu asar muallif tomonidan o'z zimmasiga oлgan juda muhim davlat vazifalarini yonida bevosita madaniy hayotning ichida bo'lishi, jamiyatni yaxshi bilishi, xalqining dardiga sherik bo'lganligi tufayli o'z tajribalarini aks ettiradigan bir asar sifatida taassurot qoldiradi".

Tadqiqotchi "Mahbub ul qulub" asaridagi ba'zi o'rnlarni pessimizm ko'rinishlari sifatida baholaydi. Olim fikrlarini davom ettirib: "Asarda juda hayratlanarli pessimizm bor. Ayniqsa, birinchi bo'limda yuqorida muhokama qilingan dalat amaldorlari va turli vazirlarga ta'rif berilganda ko'pincha salbiy baho beriladi. Odil bo'lmagan xoqon, vazifani sidqidildan bajarmagan vazirlar, tarbiyasiz ayollar, xalqqa zulm qilgan askarlar, riyokor shayxlar va boshqa muammolarni hal qilish va jamiyat sog'lom bo'lishi, o'z hayotini davom ettirish uchun bularni tuzatish zarurligi ta'kidlanadi. Navoiyning bu qadar pessimistik fikrlarini o'z davrining nuqtai nazaridan tahlil qilish to'g'ri bo'ladi. Hayoti davomida davlat mansabdorlariningadolatsizliklari, haqsizliklari bilan kurashdi, biroq umrining oxirida vaziyat yaxshi tarafga o'zgarishining o'rniga yanada yomonlashayotganiga, davlat qulash tomoniga qarab ketayotganiga guvoh bo'lgan. Boyqaroning o'g'li va nabiralar o'rtasidagi taxt uchun kurashganliklarini ko'rdi, yoshlikdan birga o'sgan do'sti va hukmdori o'rtasidagi tushunmovchiliklar natijasida Hirotdan surgun qilindi". Olim ushbu fikrlarini pessimizm deb baholashiga sabab shundaki, Navoiy o'z davridagi o'ziga va xalqiga qilingan nohaqliklar va zulmlar haddan oshgan deb hisoblaydi. Vazirlar va davlat mansabdorlarining makr-u hiylalari ikki do'st o'rtasiga nifoq soladi, natijada vazirlar sultonning qo'li bilan "shaharni obod qilish" maqsadida Navoiyni Astrobodga surgun qiladi.

"Mahbub ul qulub" asari 1873-yilda Istanbulda chig'atoymurkchasiida tarjima qilingan. Hozirga qadar ushbu asar yuzasidan lisoniy, falsafiy, adabiy jihatdan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. So'zimizni Vahid Turkning quyidagi so'zlar bilan tugatmoqchimiz: "O'zidan bir asr keyin yaratilgan tazkirada qayd etilgani kabi, biz faqirlar Navoiyning ta'rifni va tavsifi xususida so'z aytishga ojizmiz".

"Mahbub ul-qulub" dagi nazmiy parchalar tarjimasida Vohid Turk ikki xil yo'l tanlagan. Ayrim she'riy parchalar turkchaga she'riy yo'l bilan o'girilgan, aksariyat nazmiy misralarning ma'no tarjimalari nasriy bayon etilgan. Shuni aytish joizki, she'riy tarjimalar sodda, ravon, o'quvchiga tushunarli uslubda.

Ayrim misollarga murojaat qilamiz:
 Nazm Gahe topdim falakdin notavonliq,
 Gahe ko'rdum zamondin komronliq,
 Base issiq, sovuq ko'rdum zamonda,
 Base achchiq, chuchuk toptim jahonda.
 Nazm Bazen felekten zayiflik buldum,
 Bazen zamandan mutluluk gördüm,
 Çokça sıcak ve soğuk gördüm zamanda,
 Çokça acı ve tatlı tattım cihanda.
 Ruboij Gardun gah menga jafo dunlig' qildi,
 542 Baxtim kibi har ishta zabunlig' qildi,
 Gah kom sari rahnamunlig' qildi,
 Alqissa: base buqalamunlig' qildi.

Rubai Dünya bana bazer cefa ve alçaklıktı etti Bahtüm
 gibi her işimde zebunluk etti Bazen arzularıma yol göstericilik
 etti Velhasıl pek çok döneklik etti [5].

Hazrat Navoiy asarname 97-tanbehida quyidagi baytni
 keltirildilar: Ilmdan oriy ulusning johili hudkomasi, O'rganurga
 jiddu jahd etgan jahon allomasi. Ya'ni ilmdan chetda qolgan
 odam - xalq orasidagi qaysar, johil, o'rganishga qattiq kirishgan
 esa jahon allomasidir. Vohid Turk tarjimasida ushbu baytning

hozirgi turk tilidagi tarjimasi juda ravon, aniq berilgan:
 "Bilgiden uzaklaşıkça milletlerin bencil cahilleri olunur: öğremeyi isteyen ve çaba gösteren ise cihan bilgini olur" (Nevayı, Ali Şir, 2016. 126.) "Mahbub ul-qulub"da Hazrat Navoiy kotiblar haqida so'z yuritib, chiroylı yozish qobiliyatiga ega bo'lib, xatosi bo'lgan kotibni qattiq malomat qilgani, u noo'rin nuqta qo'yib "habib"ni "habibs"ga, muhabbatni mehnat-mashaqqatga aylantirishini eslatadi. Musannif xuddi shu o'rinda muallif, ya'ni Alisher Navoiy arab yozuvidagi nuqtalarining ahamiyatiga diqqat qaratayotganini tagmatnda beradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hazrat Alisher Navoiy asarları qaysi xalq tomonidan yoki kim tomonidan o'rganilishidan qat'iy nazar, asarlaridagi bebaҳo ma'no-mazmun qatlamları yangilanaveradi. Tugamas chashma singari asarlar o'tsa ham qaytadan ko'z ochib, avlodlarning ongini, ularning ma'naviy- axloqiy olamini go'zallashtirib boraveradi. Turkiyalik muhtaram olim Vohid Turkning ushbu nashri navoiyshunoslikka qo'shilgan ulkan hissa, Hazrat Navoiy ma'naviyati, ma'rifatini turk o'quvchilariga yetkazish borasidagi qiymatli, tahsinga sazovor tadqiqotlardandir.

ADABIYOTLAR

1. Vahid Turk. Mahbub ul kulub. – Istanbul.:O'tuken, 2020.
2. Vahit Türk. Türkiye'de ali şir nevâyi çalışmaları. -Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi, Sayı/Issue: 52 (Güz-Spring 2021) - Ankara, Türkiye.
3. Uludağ, Süleyman. 1991. – İstanbul: Marifet Yayınları. – B. 456.
4. Sirojiddinov, Shuhrat. 2020. Amir Alisher. – T.: Adabiyot. – B. 200.
5. Vahit, Türk. 2021. Türkiyede Ali Şir Nevai çalışmaları. Ankara: Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi. 52.403-442.